O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING INFEKTSION BO‘LMAGAN KASALLIKLARNING OLDINI OLISH VA DAVOLASH MASALALARIDAGI SAVODXONLIGINI BAHOLASH

Mustaqil izlanuvchi: **Sultanov Davron Taxirovich,**
Professor: **Muxamedova Muyassar Gafurdjanovna**
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Harbiy tibbiyot Akademiyasi

Sog‘lom avlodni tarbiyalash vazifasining pirovard maqsadi millatning har tomonlama uyg‘un barkamolligini ta’minlashdan iborat. Natijada esa sog‘lom millat buyuk davlatni, mukammal, erkin fuqarolik jamiyatini bunyodga keltiradi.

Jismonan nosog‘lom, nasl-nasabini tayini bo‘lmagan, axloqan buzuq, ma’naviy qashshoq insondan tug‘ilgan farzandning tarbiyasi ham ancha qiyin kechadi. Shuning uchun oila qurmoqchi bo‘lgan har bir yigit yoki qiz o‘ziga umr yo‘ldosh tanlashda bo‘lajak farzandlarining otasi yoki onasining shaxsiy fazilatlari bilan birga, ularning nasliy pokligiga ham e’tibor bermog‘i lozim.

Shu bilan birga sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila budjetini to‘g‘ri taqsimlash, to‘g‘ri va sifatli ovqatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni qat’iyan man etish, muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish, sanitariya-gigiena qoidalariga to‘la rioya qilish, ma’naviy intellektual shaxs bo‘lishni talab etadi.

Xullas mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizni sog‘lom turmush tarziga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, sog‘lom ong va sog‘lom tafakkurni tarkib toptirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Yosh avlodni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish samaradorligi, bu masalaning amaliyotdagi ahvolini o‘rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, yo‘l qo‘yilgan kamchilik, taklif va tavsiyalarni ijobiy yechimini topish chora-tadbirlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.